

**INGLIZ TILINI O‘QITISHDA PISA XALQARO BAHOLASH DASTURI  
O‘QISH SAVODXONLIGI TESTLARIDAN FOYDALANISH:  
METEORITES AND METEORS**

**Obidova Shaxodat**

BuxDPI tayanch doktoranti

Webster alumnasi, ESN loyihasida bosh trener-o‘qituvchi

Email: [obidovashakhodat@gmail.com](mailto:obidovashakhodat@gmail.com)

**ANNOTATSIYA**

Maqola hozirgi kunda O‘zbekiston taraqqiyoti va iqtisodiyotini rivojlantirish, har tomonlama yetuk kadrlar yetishtirish uchun dolzarb bo‘lgan PISA xalqaro baholash o‘qish savodxonligi test namunalaridagi originallikni saqlab qolish asoslarini va tanqidiy o‘qishni rivojlantirishda ulardan samarali foydalanishni ingliz tilidagi “**Meteorites and Meteors**” testi o‘zbek tilidagi tarjima namunasida ko‘rib chiqilganligi tahlili beriladi.

**Kalit so‘zlar:** Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, fenomenni ilmiy jihatdan kengaytirish, PISA,PIRLS, ikkilik tanlov savoli.

**USING PISA READING LITERACY TESTS IN ENGLISH LANGUAGE  
TEACHING: METEORITES AND METEORS ABSTRACT**

**Abstract:** The article describes the principles of preserving the originality of the PISA international assessment reading literacy test samples, which are relevant for the development of Uzbekistan’s economy, and the development of all-round competent personnel, and their effective use in developing critical reading. The analysis of the test sample "Meteorites and Meteors" in Uzbek translation is given.

**Key words:** Organization for Economic Cooperation and Development, scientific extension of the phenomenon, PISA, PIRLS, binary choice question.

Jahon mamlakatlari rivojlanishida o‘sib kelayotgan yosh avlodning aqliy salohiyati yuksakligiga erishish barcha davlatlarning yagona maslagidir. Prezident Shavkat Mirziyoyev taklifiga binoan 2030-yilgacha “Raqamli O‘zbekiston” loyihasi Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti xalqaro baholash dasturlari PISA,PIRLS testlarini maktab yoshidagi o‘quvchilar orasida tashkil etish amalga oshirilmoqda. Bu Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti test jarayonlariga jiddiy tayyorlanish va namunalardan dars jarayonlarida muntazam qo‘llash , o‘quvchi yoshlarga ushbu testlarni yechish ko‘nikmasini rivojlantirish dolzarb masala hisoblanadi. Ayniqsa O‘zbekiston chekka hududlardagi maktablar o‘qituvchilarning test namunalaridan foydalanish va ularning ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjima qilinganda ma’no originalligini saqlab qolish muhimligi asosiy masalalardan biridir.

Jumladan , ingliz tilidagi “**Meteorites and Meteors**” nomli testni o‘zbek tiliga tarjima qilishda topshiriqlar aniqligi va matn mazmuni o‘zgartirilmay berilishi shart hisoblanadi. Testlar ochiq va yopiq turda berilgan bo‘lib, ko‘p variantli testda meteoritning yerga urilish vaqtini hisoblab topish, tahlil qilish so‘ralgan. Yopiq testda ha yoki yo‘q test tanlovi bo‘lib, bu o‘quvchilarning tahlil qilish qobiliyatini baholaydigan ikkilik tanlov savolidir. O‘quvchilar kerak parchada berilgan ma’lumotlardan foydalaning va quyida keltirilgan har bir elementni tanqidiy ko‘rib chiqishi va xulosa qilish uchun bu savol "fenomenni ilmiy jihatdan kengaytirish" malakasini baholaydi. Bu o‘quvchilarda tanqidiy o‘qish va fikrlashni rivojlantirishda, ikkilanish kabi to‘siqlarning yo‘qolib borishiga sabab bo‘ladi. Ushbu testlardan muntazam foydalanish ko‘zlangan natijaga erishishga sabab bo‘ladi.

Savolga e'tibor bersak:

Quyidagilar meteorit yomg'irini tomosha qilishga to'siq bo'lishi mumkinmi?	Ha'yo'q
Bulutli osmon	Ha'yo'q
Havodagi ifloslanish	Ha'yo'q
To'q qorong'i osmon	Ha'yo'q
Yorqin oy shul'asi	Ha'yo'q

Ushbu ikki tanlov testda kuzatish mumkinki o'quvchi yoshlarning tanqidiy fikrlashi tekshirilmoqda hamda rivojlantirilmoqda. Bunda o'quvchi matnni to'liq tushunib, anglab, kalit so'zlarni belgilab olishi zarur bo'ladi. Bu ko'nikmani rivojlantirishda o'qituvchining roli beqiyos.

“Meteorits va meteor” matni 2021- yilda tavsiya etilgan testlardan biri bo'lib, bunda matn quyidagicha tarjima qilinadi:

Yorqin yorug'lik chirog'i. Lahzalar o'tib ketadi. Keyin, shovqin. Yer biroz tebranadi. Faqatgina bitta narsa bo'lishi mumkin - momaqaldiroq va chaqmoq. To'g'rimi? Sharqiy Michigan aholisining aksariyati 16-yanvarda ular soat 20:00 dan keyin bom ovozini eshitganlarida shunday deb o'yladi. Yagona muammo? Muzlashdan pastda edi va osmonda deyarli bulut yo'q edi. Bu momaqaldiroq uchun kutilgan muhit emas.

Katta ehtimol bilan aybdor meteorit edi. Odamlar meteorning parvozigiga guvoh bo'lishlariga sabab - bu ajoyib yorug'lik edi. Atmosferani sekundiga 11,26 kilometr (7 milya) tezlikda o'tayotganda tosh hosil bo'ldi. Aksariyat meteoritlar, shu jumladan, xondritlardir. Ular mayda chondrullardan, minerallardan iborat kremniyni o'z ichiga olgan bitlar. Meteoritlarda temir, nikel va magniy ham ko'p. Ikkinchisi sababi esa ular ko'k rangda porlaydi. Magniy oq rangda yonadi, lekin unga faqat ko'k nurlar yerga tushadi. (“Meteorits and meteors” [www.oecd.org](http://www.oecd.org), 2021)

Tarjima matndan ma'lumki, o'quvchi yoshlar turli fanlardagi bilimlari va matnni sinchiklab o'rganishlari talab etiladi. Bunda o'qishning ko'z yugurtirish (skimming) ma'nosini bilish, sinchiklab o'qish (scanning) ma'lumotlarni, sonlarni aniqlash uchun

qo‘llaniladigan metodlar qo‘llanilsa o‘quvchilar o‘zida ko‘nikma hosil qiladi, topshiriqda berilgan tub ma‘noni anglay oladi. Bundan tashqari keng turda va tor doirada o‘qish turlari bo‘lib, o‘qituvchi o‘quvchilarni yo‘naltirish maqsadida har ikki turga kiradigan manbalar bilan tanishtirsa, o‘quvchilar muntazam hisobotlar, esselar, qisqacha mazmunli matnlar yozib kelsa 15-yoshlilar orasida belgilangan PISA testlari yechishda samaradorlik salmoqli darajada oshgan bo‘lar edi.

Tanqidiy o‘qishni rivojlantirishda test namunalari bazasidan foydalanishda uni o‘zbek tiliga tarjima qilinganda ma‘no originalligini saqlab qolish, uni 8-9-sinf o‘quvchilarida tushunish, to‘g‘ri yechim ko‘nikma shakllantirish asosiy maqsad hisoblanadi. Bunda o‘zbek tili fani o‘qituvchilariga ingliz va rus tili o‘qituvchilarini testlar bazasini shakllantirishda ko‘maklashishi ko‘zlangan natijalarga erishishni jadal sur‘atda o‘shishiga yordamlashadi. Ma‘no originalligini saqlashda test savollaridagi ketma-ketlikka matndagi gaplarning bog‘liqligini ta‘minlashda qo‘shimcha ma‘no yuklamay tarjima qilish orqali bu testlar asosli baza sifatida foydalaniladi. Shu orqali olis hududlarda joylashgan maktablarda ham o‘quvchilarda muommoni hal qila olish, mantiqan yondashuv ko‘nikmasi shakllanadi. Zero, bu taraqqiyotimiz uchun yetuk kadrlar salohiyatini oshirishda muhim omillardan biri hisoblanadi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

1. Mirziyoyev Sh (2016 yil 7 fevral) "O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida"gi Farmoni.
2. Source Book on Assessment NCERT Official website of University of New South Wales, Sydney (<https://www.unsw.edu.au/> )
3. Curriculum for PLI, OEF  
<http://rubistar.4teachers.org>.
4. R. Madrahimova (2020) Xalqaro baholash dasturining ta‘lim tizimidagi ahamiyati, Science index  
<https://www.elibrary.ru/contents.asp?id=43155992&selid=43156001>